

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.YU.22.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
HUQUQNI MUHOFAZA QILISH AKADEMIYASI**

**ODINAYEV ADHAM SA‘DULLOYEVICH**

**MAJBURIYATLARNI BUZGANLIK UCHUN FUQAROLIK-HUQUQIY  
JAVOBGARLIKNI QO‘LLASHNING NAZARIY VA AMALIY  
MUAMMOLARI**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi. Oila huquqi.  
Xalqaro xususiy huquq

**yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Contents of the doctoral (DSc) dissertation abstract**

**Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации**

**Odinayev Adham Sa'dulloyevich**

Majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikni qo'llashning nazariy va amaliy muammolari.....3

**Одинаев Адхам Саъдуллоевич**

Теоретические и практические проблемы применения гражданско-правовой ответственности за нарушение обязательств.....33

**Odinayev Adham Sadulloyevich**

Theoretical and practical issues of applying civil liability for breach of obligations.....65

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

List of published works

Список опубликованных работ.....71

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.YU.22.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
HUQUQNI MUHOFAZA QILISH AKADEMIYASI**

**ODINAYEV ADHAM SA‘DULLOYEVICH**

**MAJBURIYATLARNI BUZGANLIK UCHUN FUQAROLIK-HUQUQIY  
JAVOBGARLIKNI QO‘LLASHNING NAZARIY VA AMALIY  
MUAMMOLARI**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi. Oila huquqi.  
Xalqaro xususiy huquq

**yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

Fan doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.DSc/YU.335 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasida bajarilgan

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.tsul.uz](http://www.tsul.uz)) va "ZiyoNET" Axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan

<b>Ilmiy maslahatchi</b>	<b>Borotov Mirodiljon Xomudjonovich</b> yuridik fanlar doktori, professor
<b>Rasmiy opponentlar:</b>	<b>Bozarov Sardor Sokhibjonovich</b> yuridik fanlar doktori, professor <b>Shodmanov Farqat Yusupovich</b> yuridik fanlar doktori, professor <b>Raximov Daniyar Baxtiyarovich</b> yuridik fanlar doktori
<b>Etakchi tashkilot:</b>	<b>O'zbekiston Respublikasi</b> <b>Ichki ishlar vazirligi akademiyasi</b>

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc 07/30.12.2019 Yu.22.01. raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 8-noyabr soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36, faks: (99871) 233-37-48; e-mail: [info@tsul.uz](mailto:info@tsul.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1433-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100190, Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi, 13-uy. Tel.: +99871-233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 17-oktabr kuni tarqatildi.

(2025-yil 17-oktabrdagi 92-raqamli reestr bayonnomasi).



**I.R.Rustambekov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
raisi, yuridik fanlar doktori, professor

**I.Yu.Habibullaev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, yuridik fanlar doktori,  
professor

**B.K.Xodjayev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, yuridik  
fanlar doktori, professor

## Kirish (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda jismoniy va yuridik shaxslarning buzilgan huquqlarini tiklash, iqtisodiy barqarorlikni hamda shartnomaviy majburiyatlarda taraflar o'rtasidagi ekvivalentlikni ta'minlashda fuqarolik-huquqiy javobgarlik institutiga alohida e'tibor qaratib kelinadi. Fuqarolik-huquqiy shartnoma munosabatlarida taraflarning zimmalaridagi majburiyatlarning bajarilmasligi mazkur majburiyatni buzgan tomonga nisbatan mulkiy ko'rinishdagi javobgarlikni qo'llashga sabab bo'ladi. Bu o'z navbatida, majburiyatni bajarmagan tarafga buzilgan huquqlarni tiklash hamda qo'shimcha mulkiy majburiyatni yuklashga oid choralar ko'rilishiga olib keladi. Dunyodagi bir qator yetakchi kompaniyalarga fuqarolik-huquqiy majburiyatlarni buzganlik uchun yirik miqdorda jarimalar qo'llanilmoqda. Xususan, fuqarolik-huquqiy da'volar bo'yicha 2024-yilda AQShning Indiana shtatida joylashgan Cummins kompaniyasi 2 mlrd. dollar, Irlandiyaning Endo International kompaniyasi 464,9 mln. dollar, AQShning JP Morgan & Co. kompaniyasi 366,2 mln. dollar, Morgan Stanley kompaniyasi 268,1 mln. dollar, Royal Bank of Canada, City National Bank kompaniyalari 65 mln. dollarlik fuqarolik-huquqiy jarimaga tortilgan<sup>1</sup>. Bundan ko'rinadiki, majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaslik, oqibatda qarzdor tomonga katta miqdordagi qo'shimcha mulkiy sanksiya qo'llanilishiga olib kelishi hamda taraflar o'rtasida turli nizolar ko'payishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu sababli, majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikka oid qonunchilikni takomillashtirish hamda uning izchilligini ta'minlash dolzarbdir.

Jahonda majburiyatlarni buzganlik uchun "aybga asoslangan javobgarlik nazariyasi (Fault-based liability)" (Fransiya, Germaniya va Italiya), "aybsiz javobgarlik (Strict liability / Objective liability)" (Germaniya), "shartnoma va delikt javobgarligi (Contractual vs Tort Liability)" (Anglo-sakson huquq tizimi davlatlari), "iqtisodiy samaradorlikni buzish doktrinasini (efficient Breach Doctrine)" (AQSh), "shartnoma oldi javobgarligi (Culpa in contrahendo)" (Germaniya va Yevropa xususiy huquqi), "insof va odobli muomala majburiyati (Good Faith and Fair Dealing)" (AQSh), "tuzatuvchi adolat nazariyasi (Corrective Justice)" (Germaniya va Fransiya), "oldini oluvchi javobgarlik (Preventive Liability)" (Yaponiya va Germaniya), "huquq va iqtisodiyot yondashuvi (Law and Economics)" (AQSh) kabi nazariyalar, modellar va doktrinalar amal qiladi. Shu bilan birga, xorijiy mamlakatlarda majburiyatlarni buzganlik uchun qo'llaniladigan javobgarlik choralari optimallashtirish, ommaviy-huquqiy va xususiy-huquqiy javobgarlikni qo'llashda uyg'unlikni ta'minlash, fuqarolik huquqini ijtimoiylashuvidan kelib chiqib javobgarlikni cheklash tendensiyalari kuzatilmoqda.

O'zbekistonda majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik masalalari borasida muayyan ilmiy doktrina shakllangan va qonunchilik tizimi yaratilgan. Bugungi kunda fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar tomonidan majburiyatni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgarlikka

---

<sup>1</sup> Исследование: самые крупные корпоративные штрафы в 2024 году на данный момент // <https://binarki-орционy.com/novosti/post/samye-krupnye-korporativnye-shtrafy>.

oid ishlar soni dinamikasi ham turlichadir. Xususan, O‘zbekistonda fuqarolik-huquqiy javobgarlik shakllaridan bo‘lgan zararni qoplash va neustoykani undirishga oid ishlar soni 2022-yilda 34290, 2023-yilda 37736, 2024-yilda 29270 tani tashkil etgan. 2022-2024-yillarda sudlar tomonidan 119 498 ta (iqtisodiy sudlarda – 101 296, fuqarolik sudlarida – 18 202) ishlar ko‘rib, 103 094 tasi (86%) qanoatlantirilgan, 16 404 ta (14%) ishlar esa turli sabablar bilan rad etilgan, ko‘rmasdan qoldirilgan yoki ish yuritish tugatilgan<sup>2</sup>. Bu esa o‘z navbatida, milliy fuqarolik huquqi doktrinasida shakllangan fuqarolik-huquqiy javobgarlik majburiyatni buzgan qarzdor zimmasiga yuklatiladigan qo‘shimcha mulkiy sanksiya bo‘lishi, zararni qoplash buzilgan huquqni tiklash chorasi hisoblanishi va kompensatsiya delikt majburiyatlarida amal qilishi kabi yondashuvlarni muvofiqlashtirishni talab etadi. Keyingi yillarda raqamli tijoratdagi shartnomaviy munosabatlar, raqamlashtirishning fuqarolik muomalasiga faol ta’siri natijasida javobgarlik subyektlarini aniqlash hamda ularga nisbatan javobgarlik ijrosini ta’minlash muammosi yuzaga kelmoqda. Bundan tashqari, bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining yangi tahririni tayyorlash ustida ish olib borilayotgan hozirgi sharoitda majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikni qo‘llashga nisbatan “aybli javobgarlik” konsepsiyasi hamda fuqarolik huquqiy javobgarlikka nisbatan huquqiy javobgarlikning boshqa turlarida amal qiluvchi ijtimoiylashuv va insonparvarlashuv modelini qo‘llash istiqbollari tadqiq etish dolzarbdir.

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi (2023), Fuqarolik kodeksi (1995, 1996), “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi (1998), “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi qonunlari (2022), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-noyabrdagi “Kreditorlarning huquqiy himoyasini kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4026-son qarori, 2019-yil 5-apreldagi F-5464-sonli farmoyishi bilan tasdiqlangan Fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasi hamda 2021-yil 15-sentabrdagi “Shartnomaviy munosabatlarni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6313-son va 2023-yil 29-apreldagi “Kreditorlarning garov bilan ta’minlangan talablarini qanoatlantirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-63-son farmonlari hamda mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy va ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

---

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2025-yil 22-iyuldagi 07-13/25-25245-sonli xati. Mazkur ma’lumotning to‘liq shakli dissertatsiyaga 5-ilova sifatida berilgan.

### **Dissertatsiyaning mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi<sup>3</sup>.**

Majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikni qo'llashga oid munosabatlarni takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlar va universitetlarda, jumladan, Utrecht Centre for Accountability and Liability Law (UCALL) (Niderlandiya) – majburiyat va javobgarlik, atrof-muhit muhofazasi, korporativ CPR, AI va avtonom tizimlar bilan bog'liq yurisdiksiya muammolarini tadqiq etadi; European Centre of Tort and Insurance Law (ECTIL) (Vena, Avstriya) – Yevropa va xalqaro asoslarda delikt, sug'urta huquqi va majburiyatlarning chegaralarini o'rganadi, terrorizm va salomatlik sohasidagi kompensatsiyalar mavzusini qamrab oladi; European Group on Tort Law (“Tilburg Group”) (Evropa mamlakatlari) – “Principles of European Tort Law” ni tayyorlash, delikt chegaralari va standartlarini birxillashtirish ustuvor vazifasidir; Institute for European Tort Law (ETL) (Avstriya akademiyasi) – ECTIL bilan qo'shma ravishda Yevropadagi delikt va majburiyat to'g'risidagi tadqiqotlarni olib boradi; Norwegian Research Center for Computers and Law (SERI) (Oslo Universiteti, Norvegiya) – IT huquq, elektron hukumat va ma'lumotni himoya qilish sohasida fuqarolik javobgarligi muammolarini o'rganadi; Leibniz Center for Law (Amsterdam Universiteti, Niderlandiya) – qonun-iqtisodiyot, avtomatlashtirilgan huquqiy qarorlar va sun'iy intellekt bilan bog'liq muammolarni tadqiq qiladi; Institute for Information, Telecommunication and Media Law (ITM) (Myunster, Germaniya) – Elektron tijorat, media va telekommunikatsiya sohalarida majburiyat, shartnoma, sug'urta va ma'lumot xavfsizligi masalalarini o'rganadi; Brooklyn Law Review (AQSh) – fault-based liability nazariyalari va mahsulot mas'uliyati sohasida ishlanmalar yo'lga qo'yilgan; Penn Law Review (AQSh) – jinoiy va fuqarolik javobgarlikda aybning axloqiy darajasi va sudlar amaliyoti tahlilini o'tkazgan; University of Kentucky (CLEO) – Center in Law, Economics and Organization (AQSh) – deliktlarda fault – javobgarlik va iqtisodiy yondashuv, nuisance liability muammolari, risk-utility muhakamalarini o'rganadi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Bugungi kunda fuqarolik-huquqiy javobgarlik masalalariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar X.R.Raxmonkulov, I.B.Zokirov, M.X.Raxmonkulov, O.Oqyulov, K.O.Sindorov, N.F.Imomov, N.A.Kuldashev, A.I.G'aybullaev, N.A.Ashurova, B.I.Ibratov, Sh.N.Ro'zinazarov, D.B.Rahimov, J.I.Babaev, M.P.Qalandarova, M.X.Borotov, S.S.Bozarov, B.M.Hamroqulov, U.P.Xolmirzaev kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan. Bevosita majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik asoslari va shakllari masalalari F.Yu.Shodmonov hamda N.H.Egamberdievalar tomonidan tadqiq qilingan<sup>4</sup>.

---

<sup>3</sup> Dissertatsiya mavzusiga oid xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi quyidagi manbalar asosida yoritilgan: <https://www.icj.org/wp-content>; <https://nonews.co/directory/wordbook/sheffen-court>; <https://www.icc-cpi.int>; <https://www.mjusticia.gob.es>; [www.jstor.org](http://www.jstor.org); <https://www.sweetandmaxwell.co.uk>; <https://www.academia.edu>; <https://www.taylorfrancis.com>; <https://www.cambridge.org>; <https://clcjbooks.rutgers.edu>; <https://academic.oup.com>; <https://www.law.virginia.edu>; <https://ink.library.smu.edu.sg>; <https://www.researchgate.net>

<sup>4</sup> Ushbu olimlarning asarlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

Xorijiy mamlakatlar olimlaridan esa, ushbu masalalarda Geistfeld A.Mark, C.P.John, Abraham S.Kenneth, J.Ernest, Patrick Atiyah, Richard Posner, W.Jason Neyers, James A.Henderson Jr. & Douglas A.Kysar, Richard Epstein, W.Peter, Lennart Åqvist & Philip Mullock, Nassim N.Taleb & Constantine Sandis, Rafael B.Stern & Joseph B. Kadane, John Kingston, Guocheng Wang, Qi Su, Long Wanglar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan<sup>5</sup>.

М.И.Брагинский, В.В.Витрянский, Е.А.Суханов, А.С.Комаров, К.В.Нам, К.А.Граве, М.С.Синявская, В.Ф.Попондопуло, В.В.Меркулов, О.С.Иоффе, М.К.Сулейменов, Ю.Э.Монастырский, Ф.Карагусов, В.В.Гарамита, Б.О.Самадзода, А.Г.Карапетов, В.А.Вятчин, Д.А.Гришин Ю.В.Долматова, А.И.Коновалов, А.А.Агарков, В.Г.Братус, Т.С.Антимонов, Э.Г.Крилова, А.С.Малеин, Г.К.Матвеев, Г.И.Меликов, Р.С.Зардов, Г.С.Захарова, Ю.Ю.Афоница, А.А.Собчак, Л.Каролине va К.А.Анненковlarning asarlarida ham majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikni qo‘llash hamda tartibga solishning ayrim masalalari o‘rganilgan<sup>6</sup>.

Yuqorida aytib o‘tilgan olimlar majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikning mohiyati, choralari, neustoyka, fors-major masalalari doirasida tadqiqotlar o‘tkazganlar. Biroq, O‘zbekiston Respublikasining bugungi rivojlanish bosqichida hamda fuqarolik qonunchiligini rivojlantirish konsepsiyasi negizida majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikni qo‘llash muammolari dissertatsiya darajasidagi tadqiqot ishining alohida mavzusi sifatida yuridik fan doirasida o‘rganilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya mavzusi Huquqni muhofaza qilish akademiyasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga kiritilgan bo‘lib, “Fuqarolik huquqi sohasidagi muammolar” ustuvor yo‘nalishi doirasida amalga oshirilgan (2024).

**Tadqiqotining maqsadi** majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikni qo‘llashning nazariy va amaliy muammolarini har tomonlama tahlil qilish, o‘rganilayotgan sohada qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy xulosalar berish, taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqotining vazifalari:**

majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik tushunchasiga nisbatan ilmiy yondashuvlarning talqinini amalga oshirish;

majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik ifodalanishining o‘ziga xos jihatlarini aniqlash;

majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikning rivojlanish genezisini ochib berish;

fuqarolik-huquqiy javobgarlik asosi sifatida majburiyatlarning buzilishini tahlil qilish;

majburiyatlar buzilishining oqibatlarini yoritib berish;

---

<sup>5</sup> Ushbu olimlarning asarlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

<sup>6</sup> Ushbu olimlarning asarlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

sababiy bog‘lanish va aybning majburiyatlar buzilishida ifodalanishini ko‘rib chiqish;

majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik turlarining tahlilini o‘tkazish;

majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik chorasi sifatida neustoyka qo‘llashni takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

zararni qoplash va burchni asl holida bajarishni fuqarolik-huquqiy javobgarlik choralari sifatida tadqiq etish;

qit‘a huquqi mamlakatlarida majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikning qo‘llanilishini o‘rganish;

anglo-sakson huquqi mamlakatlarida majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikning namoyon bo‘lishini tadqiq qilish;

musulmon huquqida fuqarolik-huquqiy javobgarlik muammolarini o‘rganish; majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikni qo‘llashga oid qonunchilikni takomillashtirishga oid takliflarni shakllantirish;

majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikka oid huquqni qo‘llash amaliyotining tahlilini o‘tkazish.

**Tadqiqotning obyekti** majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikni qo‘llashda yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlardir.

**Tadqiqotning predmeti** bo‘lib majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikni qo‘llashni tartibga soluvchi milliy va xalqaro huquq normalari, shuningdek ularni amalga oshirish amaliyoti, o‘rganilayotgan muammo bo‘yicha nazariy tadqiqotlar hisoblanadi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqotda ilmiy bilishning qiyosiy-huquqiy, tarixiylik, rasmiy-mantiqiy, tarkibiy-tizimli, tizimli tahlil, rasmiy-huquqiy, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq qilish, so‘rovnomalar o‘tkazish kabi usullari qo‘llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

agar yuridik shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi muassis (ishtirokchi) yoki mulkdorning yoxud boshqaruv organi tarkibiga kiruvchi shaxsning yoki qarzdorning ishlarini boshqaruvchi shaxsning g‘ayriqonuniy harakatlari tufayli vujudga keltirilgan bo‘lsa, bunday shaxs zimmasiga subsidiar javobgarlik yuklatilishi mumkinligi asoslantirilgan;

amalga oshirilgan to‘lov summasi pul majburiyatini batamom bajarish uchun yetarli bo‘lmaganda, eng avvalo, kreditorning ijroni olishga qaratilgan chiqimlarini, so‘ngra foizlarni, uning qolgan qismi esa – qarzning asosiy summasini uzishi asoslangan;

amalga oshirilgan to‘lov summasi qarz oluvchi jismoniy shaxsga yoki qarz oluvchi tadbirkorlik subyektiga ajratilgan mikroqarz yoki kredit bo‘yicha majburiyatlarni bajarish uchun yetarli bo‘lmasa, qarz oluvchining qarzi qoplash navbatlari asoslantirilgan;

mulkdor tomonidan moliyaviy ta‘minlanadigan muassasa o‘z majburiyatlari bo‘yicha qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda va shartlar asosida javob berishi asoslangan;

kredit bo'yicha qarzdorlikni undirish to'g'risida sudning hal qiluv qarori chiqarilganda sud qarorida ko'rsatilgan, kredit bo'yicha undiriladigan summaga nisbatan foizlar, shuningdek neustoyka hisoblanishi to'xtatilishi asoslantirilgan;

qarz oluvchining qarzini qoplash tartibi faqatgina fuqarolar va tadbirkorlik subyektlariga nisbatan tatbiq etilishi lozimligi asoslangan;

shartnoma tuzilmagan yoki haqiqiy emas deb topilganda bunday shartnoma bo'yicha mulkiy javobgarlik chorasini qo'llanilmasligi asoslantirilgan;

shartnomalarda majburiyatlarni bajarilishini ta'minlash va fuqarolik-huquqiy javobgarlik chorasi sifatida sezilarli darajada oshirib belgilangan neustoyka miqdorini sud tomonidan oqilona darajagacha kamaytirish chorasining ko'rilishiga sud ishlarini yuritishning barcha bosqichlarida yo'l qo'yilishi asoslantirilgan;

tadqiqotchi tomonidan hammualliflikda tayyorlangan "Fuqarolik huquqi" va "Uy-joy huquqi" darsliklaridan Huquqni muhofaza qilish akademiyasi hamda Toshkent davlat yuridik universitetining o'quv jarayonlarida foydalanilmoqda.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

majburiyatni buzganlik uchun javobgarlikning mohiyatida nafaqat buzilgan huquqni tiklash, balki qarzdor zimmasiga qo'shimcha mulkiy sanksiya yuklash ekanligi, bunda aybdor javobgarlik prinsipini barcha subyektlarga nisbatan bir xilda qo'llash zarurligi asoslab berilgan;

majburiyatlar buzilganda undirilishi va qoplanishi lozim bo'lgan "zarar"ning "shikast", "ziyon", "yo'qotish", "chiqimlar", "xarajatlar", "qo'shimcha to'lovlar" kabi tushunchalar bilan o'zaro nisbati aniqlangan;

fuqarolik-huquqiy javobgarlikning qo'llash asosi sifatida majburiyatlarni buzish va uning oqibatlarini qonunchilik darajasida ifodalash hamda uning mazmunini belgilash zarurligi asoslab berilgan;

bir xil turdagi majburiyatlar bo'yicha talablarni qondirish va bunda fuqarolik-huquqiy javobgarlikni belgilash asoslari tahlil qilinib, Fuqarolik kodeksini tegishli qoidalar bilan to'ldirish hamda ayrim moddalari o'zgartirish va qo'shimchalar taklifi ishlab chiqilgan;

pul majburiyatlarini bajarmaganda qo'llaniladigan foizlar va neustoykaning o'zaro nisbati hamda murakkab foizlarni qo'llamaslik bo'yicha yangi qoidalarni qonunchilik darajasida belgilash zarurati asoslantirilgan;

shartnomada nazarda tutilgan holatlar ro'y berganda vujudga keladigan mulkiy yo'qotishlar o'rnini qoplash – indemniteti (**indemnity**) institutini milliy fuqarolik huquqiga joriy etish borasida aniq takliflar shakllantirilgan;

shartnomaning bekor qilinishi oqibatida kreditorga yetkazilgan zararni qoplashni fuqarolik-huquqiy javobgarlik chorasi sifatida aniq belgilash lozimligi asoslantirilgan;

qarzdorning xodimlari tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlik shartnomali majburiyatlarda ham bevosita ish beruvchi qarzdor zimmasiga yuklanishi lozimligi asoslangan;

"Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonunning fuqarolik-huquqiy doktrinasiga mos kelmaydigan qoidalari, xususan shartnomaviy munosabatlarga davlat ishtirokini kamaytirish

nuqtayi nazaridan kelib chiqib, ushbu qonunni bekor qilish va undagi shartnomaviy javobgarlikka oid qoidalari Fuqarolik kodeksiga ko‘chirib o‘tkazish taklifi asoslab berilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalari milliy qonunchilik, xalqaro standartlar, rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi, huquqni qo‘llash amaliyoti, milliy va xorijiy olimlarning ilmiy, nazariy va amaliy qarashlariga, shuningdek, sotsiologik so‘rov natijalariga (4 890 nafar prokuratura, 104 nafar sud va adliya tizimi xodimlari fikri o‘rganilgan) asoslanadi, ular amaliyotga joriy etilgan va davlat organlari tomonidan tasdiqlangan. Xulosa, taklif va tavsiyalar aprotatsiyadan o‘tkazilib, ularning natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e‘lon qilingan. Bundan tashqari, tadqiqot ishida iqtisodiy va fuqarolik sudlari tomonidan zararni qoplash va neustoyka undirish yuzasidan ko‘rilgan ishlar bo‘yicha 2022-2024 yillarga oid statistik ma‘lumotlar, tegishli instansiya sudlarining qaror va ajrimlarini o‘rganish natijalaridan foydalanilgan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, ilmiy-nazariy tahlillar asosida olingan natijalardan ushbu sohada ilmiy tadqiqotlar olib borishda, qonun ijodkorligi, huquqni qo‘llash amaliyotida, fuqarolik va oilaviy qonunchilik normalarini izohlashda, qonunlarga sharhlar tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, mavzuni tadqiq etish natijasida shakllantirilgan ilmiy qoida, xulosa va takliflardan qonun ijodkorligida, normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga tegishli o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritishda, huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirishda, shuningdek oliy yuridik ta‘lim muassasalarida fuqarolik va majburiyat huquqi sohasidagi fanlarni o‘qitishda, qolaversa, darsliklar va o‘quv-metodik qo‘llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tadqiqot asosida olingan natijalar quyidagilarda o‘z ifodasini topgan:

agar yuridik shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi muassis (ishtirokchi) yoki mulkdorning yoxud boshqaruv organi tarkibiga kiruvchi shaxsning yoki qarzdorning ishlarini boshqaruvchi shaxsning g‘ayriqonuniy harakatlari tufayli vujudga keltirilgan bo‘lsa, bunday shaxs zimmasiga subsidiar javobgarlik yuklatilishiga oid taklifdan O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 21-fevraldagi “‘To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi O‘RQ-911-son Qonunining 3-moddasi 3-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 3-iyuldagi №3/dn-140-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning qabul qilinishi yuridik shaxsning to‘lovga qobiliyatsizlik holatida subsidiar javobgarlar doirasini belgilashga aniqlik kiritishga xizmat qilgan;

amalga oshirilgan to‘lov summasi pul majburiyatini batamom bajarish uchun yetarli bo‘lmaganda, eng avvalo, kreditorning ijroni olishga qaratilgan chiqimlarini,

so'ngra foizlarni, uning qolgan qismi esa – qarzning asosiy summasini uzishiga oid taklifdan O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 27-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga kredit majburiyatlarini bajarish tartibini takomillashtirish hamda aholining mikromoliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida" gi O'RQ-914-son Qonunining 1-moddasi 1-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 3-iyuldagi №3/dn-140-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning qabul qilinishi pul majburiyatlarini qoplash ketma-ketligi borasida o'ziga xos huquqiy mexanizm yaratilishiga xizmat qilgan;

amalg oshirilgan to'lov summasi qarz oluvchi jismoniy shaxsga yoki qarz oluvchi tadbirkorlik subyektiga ajratilgan mikroqarz yoki kredit bo'yicha majburiyatlarni bajarish uchun yetarli bo'lmasa, qarz oluvchining qarzini qoplash navbatlari qonunchilik darajasida belgilanishiga oid taklif O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 27-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga kredit majburiyatlarini bajarish tartibini takomillashtirish hamda aholining mikromoliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida"gi O'RQ-914-son Qonunining 1-moddasi 2-bandini ishlab chiqishda inobatga olingan (O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 3-iyuldagi №3/dn-140-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning qabul qilinishi qarzdordan qarzni undirish navbatlarini aniq darajada belgilashga zamin yaratgan;

mulkdor tomonidan moliyaviy ta'minlanadigan muassasa o'z majburiyatlari bo'yicha qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda va shartlar asosida javob berishi lozimligi haqidagi takliflardan O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 7-fevraldagi "Korporativ munosabatlarning huquqiy asoslari yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" O'RQ-1025-son Qonunining 7-moddasi 6-bandini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 3-iyuldagi №3/dn-140-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning qabul qilinishi notijorat tashkilotlarining alohida turi hisoblangan muassasaning yuridik shaxs sifatidagi fuqarolik-huquqiy javobgarligi chegaralarini aniq belgilashga xizmat qilgan;

kredit bo'yicha qarzdorlikni undirish to'g'risida sudning hal qiluv qarori chiqarilganda sud qarorida ko'rsatilgan, kredit bo'yicha undiriladigan summaga nisbatan qonunchilikda nazarda tutilgan foizlar, shuningdek neustoyka hisoblanishi to'xtatilishiga oid taklifdan O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 27-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga kredit majburiyatlarini bajarish tartibini takomillashtirish hamda aholining mikromoliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida"gi O'RQ-914-son Qonunining 1-moddasini (O'z.R.Fkning 744-moddasiga o'zgartirish va qo'shimcha kiritish) ishlab chiqishda foydalanilgan

(O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasining 2025-yil 29-iyuldagi 04/2-11-36-sonli hamda O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2025-yil 26-iyuldagi 27/2-168-25-sonli dalolatnomasi). Mazkur taklifning qabul qilinishi majburiyatlarni buzganlik uchun qo‘llaniladigan fuqarolik-huquqiy javobgarlik shakli va chorasi hisoblangan neustoykani hisoblash vaqtini aniqlashga imkoniyat yaratgan;

qarz oluvchining qarzini qoplash tartibi faqatgina fuqarolar va tadbirkorlik subyektlariga nisbatan tatbiq etilishiga oid taklifdan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2024-yil 16-dekabrda 39-sonli qarorining II-bo‘limi 1-bandi birinchi xatboshisini (O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi va Oliy xo‘jalik sudi Plenumining 2006-yil 22-dekabrda “Kredit shartnomalaridan kelib chiqadigan majburiyatlar bajarilishini ta‘minlash to‘g‘risidagi fuqarolik qonun hujjatlarini qo‘llashning ayrim masalalari haqida”gi 13/150-sonli qarorining 10-bandi yettinchi xatboshisi) ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2025-yil 19-avgustda 01-30-103-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklifning qabul qilinishi O‘z.R.FK 248-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan qarz oluvchining qarzini qoplash tartibi qo‘llaniladigan subyektlar doirasini aniqlashga xizmat qilgan;

shartnoma tuzilmagan yoki haqiqiy emas deb topilganda bunday shartnoma bo‘yicha mulkiy javobgarlik chorasi qo‘llanilmasligiga oid taklif O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2024-yil 16-dekabrda 39-sonli qarorining V-bo‘limi 2-bandini (“O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumining “Majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun mulkiy javobgarlik to‘g‘risidagi fuqarolik qonun hujjatlarini qo‘llashning ayrim masalalari haqida” 2007-yil 15-iyunda 163-sonli qarori 3<sup>1</sup>-bandi) tayyorlashda inobatga olingan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2025-yil 20-avgustda 425-sonli dalolatnomasi). Mazkur taklif fuqarolik-huquqiy javobgarlik qo‘llaniladigan huquqiy oqibatlar turlarini aniqlash mexanizmi yaratilishiga xizmat qilgan;

shartnomalarda majburiyatlarni bajarilishini ta‘minlash va fuqarolik-huquqiy javobgarlik chorasi sifatida sezilarli darajada oshirib belgilangan neustoyka miqdorini sud tomonidan oqilona darajagacha kamaytirish chorasining ko‘rilishiga sud ishlarini yuritishning barcha bosqichlarida yo‘l qo‘yilishiga oid takliflar, shuningdek xo‘jalik shartnomalarini bajarilmasligi bo‘yicha iqtisodiy ishlarni ko‘rib chiqish va baho berishga oid qoida va tavsiyalardan Oliy xo‘jalik sudi Plenumining 15.06.2007 yildagi “Majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun mulkiy javobgarlik to‘g‘risidagi fuqarolik qonun hujjatlarini qo‘llashning ayrim masalalari haqida”gi 163-son qarorini takomillashtirish bo‘yicha tayyorlangan loyihada foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2025-yil 20-avgustda 425-sonli dalolatnomasi). Ushbu takliflarning qabul qilinishi fuqarolik va iqtisodiy sudlarda fuqarolik-huquqiy javobgarlikni qo‘llash bilan bog‘liq ishlarni ko‘rishda huquqni qo‘llash amaliyoti samaradorligini oshirishga, sud tomonidan fuqarolik huquqining insoflilik, oqilonalik va odillik kabi umumiy prinsiplariga amal qilinishini ta‘minlashga xizmat qiladi.

tadqiqotchi tomonidan hammualliflikda tayyorlangan “Fuqarolik huquqi” va “Uy-joy huquqi” darsliklari Huquqni muhofaza qilish akademiyasi hamda Toshkent davlat yuridik universitetining o‘quv jarayonlarida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori o‘rinbosarining 2025-yil 10-iyuldagi № 7-3373782/25 dalolatnomasi). Ushbu taklif talabalarning majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikka oid bilim darajalarini oshirishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 10 ta (8 ta xalqaro, 2 ta respublika) ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha **jami 40 ta ilmiy ish**, jumladan, 3 ta monografiya, 3 ta o‘quv qo‘llanma, 2 ta darslik, **32 ta** ilmiy maqola (17 tasi dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy jurnallarda, 5 tasi xorijiy nashrlarda, 10 tasi xalqaro va respublika ilmiy-amaliy konferensiyalari to‘plamlarida) chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiyaning tuzilishi kirish, 14 paragrafdan iborat beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 260 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish (yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi) qismida** tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi, dissertatsiyaning mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, tadqiq etilayotgan muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinganligi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, natijalarning e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik mohiyatiga oid zamonaviy tendensiyalar tahlili”** deb nomlanib, unda majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik tushunchasiga nisbatan ilmiy yondashuvlarning talqini, majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik ifodalanishining o‘ziga xos jihatlari, majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikning rivojlanish genezisi tahlil etilgan.

Tadqiqot ishida majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikning mohiyati haqida huquqshunos olimlar (N.H.Egamberdieva, H.R.Raxmonkulov, I.B.Zokirov, F.Yu.Shodmonov, O.Oqyulov)ning fikrlari o‘rganilib, fuqarolik-huquqiy javobgarlikning zamonaviy tendensiyalari nafaqat haqiqiy (real) zarar va boy berilgan foydani qoplash bilan birga ma‘naviy zararni undirish, balki kompensatsiya, ya‘ni tovon to‘lashni ham nazarda tutishi haqida xulosaga kelinadi.

Majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikni tushunish va talqin etishga nisbatan xorijiy yurisdiksiyalarda ham bir qator ilmiy-amaliy va nazariy yondashuvlar shakllangan. Xorijiy huquqiy fanlarda umum qabul qilingan kategoriya bo‘lib, bu javobgarlik, jumladan zararni qoplash va neustoykani undirishdan tashqari, shartnomani bekor qilish, real bajarish, sinallagmatik (ikki tomonlama) shartnomada bajarishni to‘xtatib turish yoki bajarishdan bosh tortish (exceptio non adimpleti contractus), pul majburiyatlarida yillik foizlar va bahoni kamaytirishni ham o‘z ichiga oladi. Bu yondashuv BMTning 1980-yil 11-apreldagi “Tovarlar xalqaro oldi-sotdi shartnomalari to‘g‘risida”gi Vena Konvensiyasi, UNIDRUning xalqaro tijorat shartnomalari prinsiplari, shuningdek Yevropa shartnoma huquqi prinsiplari kabi uyg‘unlashtirilgan xususiy-huquqiy hujjatlarda aks etgan.

Shuningdek, dissertatsiyada fuqarolik-huquqiy javobgarlikning sanksiya bilan bog‘liqligiga oid “javobgarlikning ustunligi” konsepsiyasi, “sanksiya ustunligi” konsepsiyasi, “bir xillik (o‘xshashlik)” konsepsiyasi tahlil qilingan. Amalga oshirilgan tahlillar natijasida fuqarolik-huquqiy javobgarlik tushunchasiga mualliflik ta’rifi ishlab chiqilgan.

Ishda huquqiy javobgarlikni salbiy va ijobiy jihatlariga oid bir qator mualliflar (O.E.Leyst, M.B.Razgildieva, Ye.B.Xoxlov, N.N.Matuzov, D.A.Lipinskiy, A.S.Bondarev, I.A.Alekseev, N.V.Vitruk, A.S.Bondarev, D.A.Lipinskiy)ning fikrlari tadqiq etilib, fuqarolik-huquqiy javobgarlikning ahamiyati uning funksiyalari orqali namoyon bo‘ladi, degan to‘xtamga kelinadi. Fuqarolik-huquqiy javobgarlikning yuridik javobgarlikning boshqa turlaridan farq qiluvchi eng muhim jihatlaridan biri bu buzilgan huquqni tiklash sanaladi. Aynan mazkur jihatdan kelib chiqib, yuridik javobgarlikning mazkur turi mulkiy tus kasb etadi. Binobarin, fuqarolik qonunchiligida belgilangan raddiya berish, buzilgan huquq kimga tegishliligi haqida xabar berish yoki boshqa nomulkiy tusdagi huquqbuzarga nisbatan qo‘llaniladigan salbiy oqibatlar operativ ta’sir choralari hisoblanadi.

Muallifning fikricha, fuqarolik javobgarlikning ikki asosiy funksiyasini – reparativ (zararni qoplash) va preventiv-tarbiyaviy funksiyalarini birlashtirish mazkur huquqiy institutga mustahkam mazmun baxsh etadi, adolat g‘oyasini tiklaydi va noqonuniy harakatlar oqibatida yuzaga kelgan salbiy ta’sirlarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida keltirilgan zararni to‘liq qoplash majburiyatini yuzaga keltiradi.

Tadqiqot ishida majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikning rivojlanish genezisi nuqtai nazaridan qadimgi Rim, Yevropa huquqi, Avesto, milliy qonunchilikning shakllanishi va takomillashuvi borasidagi masalalar atroflicha tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik asoslari va shartlarining ilmiy-amaliy masalalari”**ga bag‘ishlangan. Unda majburiyatlarning buzilishi – fuqarolik-huquqiy javobgarlik asosi sifatida, majburiyatlar buzilishining oqibatlari tahlili, sababiy bog‘lanish va aybning majburiyatlar buzilishida ifodalanishi tadqiq etilgan.

Majburiyatlarni buzish holatida qo'llaniladigan fuqarolik-huquqiy javobgarlik – bu shartnoma yoki qonun bilan belgilangan qoidalarga rioya qilinmaganida yuzaga keladigan huquqiy reaksiya bo'lib, uning asosiy xususiyati moddiy (mulkiy) xususiyatdagi sanksiyalarni tatbiq etish bilan bog'liqdir. Bunday javobgarlikning vazifasi faqat qarzdorni jazolashdan iborat emas, aksincha, qarzdorning harakatlari yoki harakatsizligi oqibatida kreditorning buzilgan mulkiy manfaatlarini tiklashga qaratilgan.

Ishda ko'plab olimlar (H.R.Raxmonkulov, I.B.Zokirov, N.H.Egamberdieva, K.O.Sindorov, M.I.Braginskiy, G.I.Strelnikova, Ye.A.Suxanov, A.I.Maslyayev, N.I.Kovalenko)ning majburiyatning buzilishi tushunchasiga oid fikrlari tahlili qilinib, ayrim xorijiy davlatlar (Rossiya, Ukraina, Tojikiston)ning qonunchiligi o'rganilib, O'z.R.FKning 236-moddasi ikkinchi qismiga qo'shimcha kiritish taklifi asoslantiriladi. Shuningdek, O'z.R.FKda majburiyatlar bajarmaganlik holatlarining oqibatlari masalasida, xususan, talablarni qoplash navbatlarida aniq ifodalanmaganligiga e'tibor qaratilib, Belarus davlati tajribasidan kelib chiqib, O'z.R. FKga “Bir xil turdagi majburiyatlar bo'yicha talablarni qondirish” nomli 248<sup>1</sup>-moddani kiritish taklif etilgan. Bundan tashqari, O'z.R.FKning 24-bobi “Majburiyatni buzganlik uchun javobgarlik” deb nomlangan bo'lsada, “majburiyatning buzilishi” tushunchasi mavjud emasligi, ushbu bo'shliqni to'ldirish maqsadida, Ukraina tajribasi asosida O'z.R.FKning 324-moddasini “Majburiyatning buzilishi” deb nomlash va amaldagi 324-moddani 324<sup>1</sup>-modda sifatida belgilash g'oyasi ilgari suriladi.

Dissertatsiyada majburiyatlar buzilishi oqibatlari bo'yicha bir qator mualliflarning (V.F.Popondopulo, M.S.Sinyavskaya) fikrlari o'rganilib, majburiyatni buzish – huquqiy munosabatning me'yoriy, kutilayotgan rivojlanish yo'lidan chetga chiqishi bo'lib, uning salbiy xususiyati va noqulay oqibatlari huquq tizimida alohida o'rganilishi zarur bo'lgan masala ekanligiga e'tibor qaratiladi. Shu sababli ham majburiyat buzilishining salbiy oqibati sifatida “zarar”ning “shikast”, “ziyon”, “yo'qotish”, “chiqimlar”, “xarajatlar”, “qo'shimcha to'lovlar” kabi tushunchalar bilan o'zaro nisbati tahlil etiladi. Bunda muallif O'z.R.FKga “yo'qotishlarni qoplash”ga oid normani kiritish va bunda anglo-saxon huquqi oilasida qo'llaniladigan modelni qabul qilishga oid olimlar (N.F.Imomov, D.B.Raximov, M.K.Suleymenov, F.Karagusev, M.Bussani, V.Palmer)ning fikrlarini qo'llab quvvatlagan holda, O'z.R.FKni “Shartnomada nazarda tutilgan holatlar ro'y berganda vujudga keladigan mulkiy yo'qotishlarni qoplash” deb nomlangan yangi 339<sup>1</sup>-modda bilan to'ldirishni taklif qiladi hamda mazkur moddaning matnini shakllantiradi.

Majburiyatlarning buzilishi munosabati bilan yuzaga keladigan huquqiy oqibatlarni baholashda sababiy bog'lanish va ayb kategoriyalari markaziy o'rinni egallaydi. Dissertatsiyada fuqarolik-huquqiy javobgarlikning uchta nazariyasi: ayb nazariyasi, zarar yetkazish nazariyasi va aralash nazariya (aybning subyektiv tarafi hamda zarar yetkazishning obyektiv tarafini uyg'unlashtiruvchi nazariya) tadqiq etiladi. Shuningdek, tadqiqotda anglo-amerika huquq tizimida mavjud bo'lgan

sababli bog‘lanishni aniqlashning “but for” va NESS testlarini qo‘llash masalalari o‘rganilgan.

Chet el doktrinasini qarzidor uchun zararlarni oldindan ko‘ra bilishning bir nechta mustaqil mezonlarini belgilaydi: xabardorlik (knowledge), shartnoma shartlari (terms of the contract) hamda savdo amaliyotidagi odatlar (trade usage). Anglo-amerika huquqida zararlarni haqidagi xabardorlik quyidagi ikki turga bo‘linadi: odatiy holatlardan kelib chiqadigan nazariy xabardorlik (imputed knowledge) va odatiy jarayonda bilib bo‘lmaydigan maxsus holatlar haqidagi asl xabardorlik (actual knowledge).

Muallifning fikricha, O‘z.R.FKda aybning fuqarolik-huquqiy xususiyatlari yoki fuqarolik-huquqiy javobgarlik shartlaridan biri sifatida o‘ziga oid maxsus qoidalari ochiq shaklda nazarda tutilmagan. Shu boisdan, ayb tushunchasini aynan fuqarolik-huquqiy javobgarlik doirasida chuqurroq tahlil qilish o‘rinlidir. Ishda ko‘plab xorijiy davlatlarning (RF FKning 401-moddasi, Belarus FKning 372-moddasi, Qozog‘iston FKning 359-moddasi, Tojikiston FKning 462-moddasi, Ukraina FKning 614, 617-moddalari, Ozarbayjon FKning 448-moddasi) qonunchiligi tahlil etilib, O‘z.R.FKdagi majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgarlik asosi sifatida aybni belgilash, fors-major holatlarini ham barcha uchun bir xilda amal qilishini nazarda tutish taklif etiladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobini **“Majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik turlari va choralari”** deb nomlanadi. Unda majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik turlarining tahlili, majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik choralari sifatida neustoykani takomillashtirish, zararni qoplash va burchni asl holida bajarish masalalari keng tadqiq qilingan.

Ushbu bobda fuqarolik-huquqiy javobgarlik turlari haqida ayrim mualliflar (I.B.Zokirov, H.R.Raxmonkulov, M.K.Suleymenov, B.O.Samadzoda)ning fikrlari o‘rganiladi va shu asosda fuqarolik-huquqiy javobgarlik turlari quyidagicha tasniflanishi taklif etiladi: 1) majburiyat manbasi va xarakteri (shartnomaviy yoki shartnomadan tashqari – ya’ni delikt javobgarligi); 2) majburiyatda ishtirok etuvchi shaxslarning soni va o‘zaro munosabati (ulushli, birgalikdagi, solidar, subsidiar javobgarlik); 3) majburiyatning qonuniy yoki shartnomaviy kelib chiqishi (amaldagi huquqiy munosabatga bog‘liq yoki qonundan kelib chiqadigan javobgarlik). Shuningdek ishda, solidar javobgarlik masalalariga oid Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya davlatlari qonunchiligi hamda OESR korporativ boshqaruv standartlari o‘rganilib, O‘z.R.FKning 45<sup>1</sup>-moddasi sifatida “Yuridik shaxs organlarining fidutsiar (ishonchli) majburiyatlari” nomli modda kiritish taklifi ilgari suriladi. Shu bilan birga, O‘z.R.FKga “Shartnoma bekor qilinganda yetkazilgan zararlarni qoplash” nomli 324<sup>3</sup>-moddani kiritish taklif etiladi.

Neustoyka o‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra ikki yoqlama xususiyat kasb etib, bir paytning o‘zida ham majburiyatlarning bajarilishini ta’minlash usuli, ham fuqarolik-huquqiy javobgarlik shakli hisoblanadi. Dissertatsiya neustoykaning huquqiy tabiati borasida bir qator olimlar (I.B.Zokirov, F.Yu.Shodmonov, M.P.Qalandarova, D.A.Grishin, J.Y.Gotanda)ning fikrlari o‘rganilib, muallif

tomonidan asoslantirilgan ilmiy to'xtamga kelinadi. Xususan, neustoykani alohida javobgarlik choralari qatoriga kiritish sabablari quyidagilardir: ko'rilgan zarar miqdorini isbotlash talab etilmasligi, neustoyka miqdori shartnoma yoki qonunda belgilanishi, amalda qo'llashning o'ziga xos qoidalari va boshqalar.

Tadqiqot ishida keltirilishicha, pul majburiyatlarida, xususan kredit bilan bog'liq qoidalarda asosiy qarz, neustoyka va foizlarni hisoblash tizimi bugungi kunda "notartib" tus kasb etadi. Ayniqsa, banklar tomonidan kredit oluvchilarga nisbatan bir vaqtning o'zida asoratga soluvchi bir nechta foizlar, penyalar va boshqa turdagi pul majburiyatlarining yuklatilishi oxir oqibat huquqiy adolatsizlikni keltirib chiqarmoqda. Shu sababli, qonunchilikka va sud amaliyotiga pul majburiyatlari qarzdor tomonidan amalga oshirilgan to'lov yetarli bo'lmaganda, qondirilishi lozim bo'lgan navbatlarni aniq belgilab qo'yish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi **"Majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikka oid xorijiy mamlakatlar qonunchiligi tajribasi"** deb nomlanib, unda qit'a huquqi mamlakatlarida majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikning qo'llanilishi, anglo-sakson huquqi mamlakatlarida majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikning namoyon bo'lishi, musulmon huquqida fuqarolik-huquqiy javobgarlik muammolari ochib berilgan.

Qit'a huquqi tizimiga mansub davlatlar fuqarolik huquqini normalashda to'g'ridan-to'g'ri huquqiy qoidalarga, huquqiy prinsiplar va kodekslarga tayanadigan normativ tizimni shakllantirgan. Bu tizimda majburiyatlarni buzish natijasida vujudga keladigan fuqarolik-huquqiy javobgarlik o'zining tartibga solinganligi, universallikni ta'minlashga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Xususan, Fransiya, Germaniya, Italiya, Ispaniya kabi davlatlarning fuqarolik kodekslarida majburiyatlar buzilishi natijasida yetkazilgan zarar uchun javobgarlikning shakllari, shartlari va natijalari aniq belgilangan.

Dissertatsiyada ayrim mualliflar (H.Mazeaud, J.Mazeaud, F.Chabas, M.Villey, V.Bergmann, Ya.Shapp, L.Karoline, W.Fikentscher, A.Heinemann)ning olmon huquq doktrinasidagi majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlik masalalariga oid fikrlari o'rganilib, Germaniya qonunchiligiga ko'ra majburiyatlarning buzilishi oqibati sifatida ikkita alohida bo'lim: "Leistungsstoerungsrecht" (ijroning buzilishi huquqi) va "Schadensersatzrecht" (zararni qoplash huquqi) ajratilishi tadqiq etiladi.

Niderlandiyada fuqarolik huquqlarini himoya qilish bo'yicha amaldagi tizim asosan Germaniya fuqarolik tuzugining (GFT) qoidalariga tayanadi. Niderlandiyada fuqarolik huquqlarini himoya qilishning asosiy huquqiy usuli – bu majburiyatlarni asl holida (naturada) bajarish hisoblanadi. Ishda keltirilishicha, qit'a huquqi tizimiga mansub davlatlar – jumladan, Germaniya, Fransiya, Shveysariya, Turkiya, Xitoy va Rossiya fuqarolik qonunchiligida majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik instituti mustahkam ilmiy-amaliy asosga ega. Bu davlatlarda majburiyatni buzish natijasida yuzaga keladigan javobgarlik faqat ayb asosida emas, balki ba'zi hollarda aybsiz javobgarlik tamoyili asosida ham belgilanadi.

Anglo-sakson huquqi tizimiga mansub davlatlar – jumladan, Buyuk Britaniya, Irlandiya, AQSh, Kanada va Avstraliya fuqarolik qonunchiligida majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlikning shakllanishi va qo‘llanilishi kontinental (qit‘a) huquq tizimidagi yondashuvlardan sezilarli darajada farq qiladi. Ushbu huquq tizimida sud amaliyoti va keyslar (precedents) asosiy manba bo‘lib xizmat qilar ekan, fuqarolik-huquqiy javobgarlik ham katta darajada sud pretsedentlari orqali shakllanadi. Bu huquq tizimida, ayniqsa, shartnoma majburiyatlarini bajarishda “but for” testidan foydalanish, zararning o‘lchanishi va zararning “oldindan ko‘rilishi mumkinligi” (foreseeability) mezoni alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Shuningdek, ayrim holatlarda “equitable compensation” – ya’ni, adolatli kompensatsiya shaklidagi himoya vositasi ham qo‘llaniladi.

Ishda anglo-sakson huquq tizimidagi mutlaq javobgarlik konsepsiyasi, “befoydalik” yoki “shartnoma maqsadining yo‘qolishi” (frustration) doktrinasini tahlil etilgan. Shuningdek, “asosiy shart” (fundamental term) konsepsiyasi, “shartnomani asosan buzish” (fundamental breach) konsepsiyasi ko‘rib chiqiladi. AQSh huquq amaliyotida “shartnomani samarali buzish” nazariyasi (efficient breach of contract) ham amal qilishiga tadqiqotchi tomonidan e’tibor qaratiladi.

Musulmon huquqida fuqarolik-huquqiy javobgarlik (zaman) masalalari, odatda, shariat manbalari – Qur‘on, Sunna, ijmo va qiyosga tayanilgan holda hal etiladi. Bu tizimda javobgarlik, birinchi navbatda, shaxsiy ayb va adolat tamoyili asosida belgilanadi va uning maqsadi zararni to‘liq qoplashdan tashqari, ijtimoiy barqarorlik hamda insof va tinchlikni ta’minlashga qaratilgan bo‘ladi.

Shu bilan birga, zamonaviy fiqhda va ayrim islom davlatlarining qonunchilik amaliyotida fuqarolik-huquqiy javobgarlikni belgilashda bir qator murakkabliklar va tafovutlar kuzatiladi. Xususan, shartnomani buzish, zararni baholash, qasd yoki beixtiyor harakatlar uchun javobgarlik kabi masalalarda turli mazhablar va huquqiy maktablar o‘rtasida bir xil yondashuv mavjud emas. Bundan tashqari, islom huquqi bilan zamonaviy huquqiy tizimlar o‘rtasidagi munosabat, davlat qonunlarining shariat normalariga mos kelishi masalasi ham doimiy ravishda huquqiy bahs-munozaralarga sabab bo‘lib kelmoqda.

Tadqiqot ishining **“Majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikni takomillashtirish muammolari”** deb nomlangan beshinchi bobida majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikni qo‘llashga oid qonunchilikni takomillashtirish, majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikka oid huquqni qo‘llash amaliyotining tahlili ko‘rib chiqilgan.

Fuqarolik huquqida majburiyatlar instituti keyingi yillarda faol rivojlanmoqda. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kreditorlarning huquqiy himoyasini kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2018-yil 23-noyabrdagi PQ-4026-son Qarori, 2019-yil 5-apreldagi F-5464-sonli farmoyishi bilan tasdiqlangan Fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasi hamda 2021-yil 15-sentabrdagi “Shartnomaviy munosabatlarni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6313-son va 2023-yil 29-apreldagi “Kreditorlarning garov bilan ta’minlangan talablarini qanoatlantirish tizimini

yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-63-son Farmonlarining qabul qilinishi munosabati bilan fuqarolik-huquqiy javobgarlik institutini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

O'z.R.FKning majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikka bag'ishlangan 24-bobi o'tgan asrning oxirlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatdan kelib chiqib qabul qilingan bo'lib, o'tgan yillar mobaynida bir muncha "eskirgan" hamda zamonaviy chaqiriqlar hamda internet tarmog'ining rivojlanishi bilan bog'liq masalalarni qamrab olmagan. Shu nuqtayi nazarda O'z.R.FKning 24-bobini yangi tahrirda belgilash va uning tuzilishini xorijiy mamlakatlar, eng avvalo qo'shni mamlakatlar fuqarolik kodekslaridan kelib chiqib qayta shakllantirish lozim.

Agar amaldagi O'z.R.FKning 24-bobiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bunda "majburiyatlarni buzish tushunchasi", "majburiyatni buzish oqibatlari", "shartnomani bekor bo'lganlik uchun javobgarlik", "yo'qotishlar uchun javobgarlik", "qarzdorning o'z xodimlari tomonidan yetkazilgan zarari uchun javobgarlik", "majburiyatda tavakkalchilik" va shu kabi bir qator moddalar va qoidalar mavjud emasligi ko'zga tashlanadi. Tadqiqot natijasida MDH davlatlari, xususan RF, Ukraina, Tojikiston, Belarus, Qozog'iston kabi mamlakatlar fuqarolik kodekslaridan tajribasidan kelib chiqib, O'z.R.FKga takomillashtirishga oid aniq takliflar va tavsiflar ishlab chiqilgan.

Professor S.Bozarovning sun'iy intellekt mahsuloti uchun fuqarolik huquqida qat'iy javobgarlikning kiritilishi ham klassik yuridik javobgarlik maqsadidan biri bo'lgan huquqbuzarlikni oldini olish, profilaktika maqsadlariga erishishga imkon bermasligi, chunki sun'iy intellekt mahsulotini javobgarlikka tortish holati uni axloqini tuzata olmaydi va potensial javobgarlikning og'irligi uning harakatlariga to'sqinlik qilmasligi kabi fikrlari qo'llab-quvvatlangan.

Dissertatsiyada keltirilishicha, amaldagi qonunchilik, sud amaliyoti va ilmiy doktrina tahlili asosida majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikni rivojlantirishning qator tendensiyalarini ajratish mumkin: 1) fuqarolik qonunchiligiga insofilik tamoyilining kiritilishi; 2) majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlikning samarali modelini izlash jarayoni hali ham davom etmoqda; 3) fuqarolik-huquqiy javobgarlik konstruksiyasida oqibatlarni oldindan ko'ra bilish mezonini inobatga olish va sababiy bog'lanishni subyektivlashtirish; 4) fuqarolik-huquqiy javobgarlik choralarining kompensatsion yo'naltirilganligi – kreditorning ijro manfaatini himoya qiladi (performance interest); 5) fuqarolik-huquqiy javobgarlikning dispozitiv tamoyillarining rivojlanishi; 6) fuqarolik-huquqiy javobgarlik instituti rivojlanishining tendensiyalaridan biri – shartnomadan tashqari javobgarlik doirasining kengayishi va shartnomaviy hamda delikt javobgarligi o'rtasidagi o'zaro aloqaning mustahkamlanishidir.

Dissertatsiyada amalga oshirilgan tahlillar asosida Oliy sud Plenumining 2007 yil 15 iyundagi 163-sonli qaroriga javobgarlik chorasi sifatida majburiyatning asl holda bajarish va xususiy alomatli ashyolarni topshirish majburiyatini bajarishni qo'llashga qaratilgan yangi 19<sup>1</sup>- va 19<sup>2</sup>-bandlarni kiritish taklif etiladi.

## XULOSA

Majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikni qo'llashning nazariy va amaliy muammolari mavzusidagi dissertatsiya tadqiqoti natijasida nazariy va ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lgan quyidagi xulosa, taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqildi:

### **I. Majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikni qo'llash borasidagi ilmiy-nazariy xulosa va takliflar:**

1. Dissertatsiya tadqiqoti davomida amalga oshirilgan tahlillar natijasida **“majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik”** tushunchasiga quyidagi mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi:

*“Majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik – bu fuqarolik-huquqiy normalar bilan belgilangan majburiyatlarning buzilishi oqibatida kelib chiqadigan, qarzdorning zimmasiga kreditorning buzilgan huquqiy manfaatlarini tiklash, yetkazilgan zararni qoplash hamda huquqiy buzilish oqibatlarini har tomonlama to'liq bartaraf etish maqsadida, majburiy ravishda yuklatiladigan majmuaviy (kompleks) huquqiy chora-tadbirlar majmuidir”.*

2. Fuqarolik-huquqiy javobgarlikni keltirib chiqaradigan asos sifatida **majburiyatni buzish** tushunchasiga quyidagicha ilmiy ta'rif berish mumkin:

*“Majburiyatni buzish – bu huquq subyektini tomonidan fuqarolik-huquqiy munosabat doirasida zimmasiga yuklangan yuridik majburiyatning mazmun-mohiyatini tashkil etuvchi harakatni umuman bajarmaslik, kechiktirib bajarish, nomaqbul yoki notekis amalga oshirish, huquqqa xilof tarzda o'zgartirish yoki mutlaqo tiklab bo'lmaydigan holatga keltirish orqali uning to'liq yoki qisman amalga oshmasligida namoyon bo'ladigan huquqbuzarlik shaklidir”.*

3. Dissertatsiyada majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikka oid “javobgarlikning ustunligi” konsepsiyasi, “sanksiya ustunligi” konsepsiyasi, “bir xillik (o'xshashlik)” konsepsiyasi tahlil qilindi. Muallifning fikricha, fuqarolik-huquqiy javobgarlik – bu moddiy (mulkiy) sanksiyalar turlaridan biri bo'lib, u qarzdor (ya'ni, zarar yetkazuvchi shaxs) uchun uning mulkiy huquqlari sohasida salbiy oqibatlar yuzaga kelishi bilan tavsiflanadi va shu orqali jabrlanuvchiga uning huquqi buzilgunga qadar mavjud bo'lgan holatni to'liq yoki qisman tiklash imkonini beradi.

4. Majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik masalasi fuqarolik huquqi nazariyasida eng muhim va munozarali masalalardan biri hisoblanadi. Turli ilmiy maktab vakillari va mualliflarning fuqarolik-huquqiy javobgarlikka bo'lgan turlicha yondashuvlari tahlili asosida quyidagi ilmiy xulosalarga kelish mumkin: 1) Fuqarolik-huquqiy javobgarlik – bu huquqbuzarlik uchun davlat tomonidan qo'llaniladigan mulkiy sanksiyadir; 2) Javobgarlik real majburiyatni ijro etishdan farq qiladi; 3) Javobgarlik sanksiyaning amalga oshgan shakli sifatida namoyon bo'ladi; 4) Sanksiya va javobgarlik o'rtasida farqlar mavjud; 5) Fuqarolik-huquqiy javobgarlikni alohida huquqiy institut sifatida shakllantirish maqsadga muvofiq.

5. Fikrimizcha, majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik, eng avvalo, fuqarolik-huquqiy munosabat ishtirokchilari o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlaydi hamda buzilgan huquqni tiklash chorasi sifatida ifodalanadi. Bunday ifodalanish esa o'z navbatida, tegishli javobgarlik choralari orqali namoyon bo'ladi. Shu sababli, majburiyatlarning buzilishi bu uni buzgan tarafga salbiy mulkiy oqibatlarni olib keladigan yuridik fakt hisoblanadi va unga nisbatan qonunchilik yoki shartnomada nazarda tutilgan choralar qo'llaniladi.

6. Fuqarolik-huquqiy javobgarlik sohasi – normativ jihatdan maxsus huquqiy yondashuvni talab qiluvchi, murakkab va yuksak darajada ishlab chiqilgan nazariy va amaliy sohadir. Uning shakllanishi va rivojlanishida boy ilmiy-amaliy tajriba, ixtisoslashgan adabiyot va yurisprudensiya muhim o'rin tutadi. Bu institut tarixiy jihatdan bosqichma-bosqich rivojlangan bo'lib, har bir bosqich o'zining xususiy prinsiplari va normativ yechimlarini taklif qilgan. Shu jihatdan, fuqarolik javobgarligining turli shakllari va mazmuni ushbu evolyutsiya jarayoni bilan chambarchas bog'liqdir.

7. Ta'kidlash joizki, fuqarolik-huquqiy javobgarlikka oid prinsip va funksiyalarning shakllanish jarayonida zamon va ijtimoiy munosabatlar ta'sirida vujudga kelgan muayyan nazariyalar, huquqiy sanksiyalar va ta'limotlar muhim ahamiyat kasb etgan. Bu esa, fuqarolik-huquqiy javobgarlikning mazmuni va undagi funksiyalarning doimiy ravishda rivojlanishiga olib keldi. Mazkur jarayonda axloq, shaxsiy va ijtimoiy o'ziga xoslik, shuningdek, din kabi qadriyatlar ham yetakchi rol o'ynagan bo'lib, ularning ta'siri hozirgi kunda javobgarlik funksiyalarining mazmunida hamda ularni qayta-qayta aniqlashda yaqqol namoyon bo'lmoqda.

8. Fuqarolik-huquqiy javobgarlikning ikki asosiy funksiyasini – reparativ (zararni qoplash) va preventiv-tarbiyaviy funksiyalarini birlashtirish mazkur huquqiy institutga mustahkam mazmun baxsh etadi, adolat g'oyasini tiklaydi va noqonuniy harakatlar oqibatida yuzaga kelgan salbiy ta'sirlarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida keltirilgan zararni to'liq qoplash majburiyatini yuzaga keltiradi.

9. Majburiyatlarning buzilishi faqat umumiy ma'noda huquqqa xilof harakat sifatida baholanishi mumkin. Aniqroq aytganda, fuqarolik-huquqiy javobgarlik uchun huquqqa xiloflikni shartli ma'noda, nazariy jihatdan olganda qabul qilinishi to'g'riroq bo'ladi. Fuqarolik huquqining bugungi konsepsiyada majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgarlikning dastlabki asosi umum yuridik javobgarlik yoki uning bazisi hisoblangan ommaviy-huquqiy javobgarlik (jinoiy, ma'muriy) dan farqli o'laroq huquqqa xiloflik, huquqbuzarlikka qurilmaydi. Zero, fuqarolik huquqida huquqbuzarlik mavjud emas, huquqni buzgan shaxs ham "huquqbuzar" atamasi bilan atalmaydi. Shu sababli, "majburiyatning buzilishi" fakti shartnomaviy javobgarlik belgilanishi asosi sanaladi.

10. Majburiyatning predmeti haqidagi turli qarashlarni tahlil qilgan holda, shu xulosaga keldikki, majburiyatni bajarish predmeti (yoki uning predmeti) qarzdor tomonidan amalga oshirilgan harakat (yoki harakatdan tiyilish) natijasida vujudga keladigan moddiy yoki nomoddiy natija bo'lib hisoblanadi. Bu natija ashyo, bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat, shuningdek qarzdorning moddiy yoki ma'naviy faoliyatining boshqa biror natijasi bo'lishi mumkin.

11. Odatda majburiyatning buzilishi kreditor uchun salbiy oqibat, iqtisodiy inqiroz, moliyaviy qiyinchilik, muayyan mulkiy yo‘qotishlarga olib keladi. Shu sababli ham, dissertatsiyada majburiyat buzilishining salbiy oqibati sifatida “zarar”ning “shikast”, “ziyon”, “yo‘qotish”, “chiqimlar”, “xarajatlar”, “qo‘shimcha to‘lovlar” kabi tushunchalar bilan o‘zaro nisbati aniqlandi va ular har birining mohiyati ochib berildi.

12. “Yo‘qotishlar” atamasi “zarar” so‘ziga nisbatan ko‘proq o‘xshashlik uyg‘otsa-da, uning huquqiy qamrovi darajasi undan keng emas. Bu tushuncha, aslida, mulkiy kamayishni anglatishi lozim – u tabiiy sabablar, shuningdek, huquq subyektining yoki mol-mulk egasining aybi yoki noqobil boshqaruvi tufayli yuzaga kelgan bo‘lishi mumkin. Yo‘qotish, avvalo, aniq sodir bo‘lgan mol-mulkning yo‘qolishi yoki huquqlarning kamayishi bo‘lib, uning pulda baholanishi shart emas. Shu bilan birga, zararni qoplashning asosiy maqsadi – jabr ko‘rgan shaxsga yo‘qolgan qiymatning o‘rnini bosadigan boshqa qimmatlikni taqdim etishdan iborat.

13. Dissertatsiyada amalga oshirilgan tahlillar asosida “boy berilgan foyda – bu qarzdor tomonidan majburiyat shartlarini buzish yoki boshqa huquqqa zid harakatlar sodir etilishi natijasida kreditorning mulkiy manfaatlari kamayishiga olib keladigan, u shartnoma (yoki majburiyat) o‘z vaqtida va lozim darajada bajarilganda, normal iqtisodiy sharoitlarda olishi mumkin bo‘lgan, lekin amaliy ravishda qabul qilinmay (olinmay) qolgan qo‘shimcha mol-mulk yoki mulkiy qiymatdir” – degan xulosaga kelindi.

14. Tadqiqot ishida fuqarolik-huquqiy javobgarlikni belgilashda ayb nazariyasi, zarar yetkazish nazariyasi va aralash nazariyalar mavjudligi asoslantirildi. Fikrimizcha, O‘zbekiston fuqarolik huquqida esa aynan aralash nazariya qo‘llaniladi va unga ko‘ra qarzdor shartnomani buzganida uning aybdorligi prezumpsiya qilinadi, ya‘ni ayb borligi avtomatik ravishda nazarda tutiladi. Qolaversa, tadbirkorlik faoliyatida shartnoma shartlarini buzish uchun qarzdorning aybi ahamiyatga ega bo‘lmagan holatlarda ham javobgarlik yuzaga keladi. Bunday sharoitda qarzdorning subyektiv munosabatini o‘rganishga sud odatda ehtiyoj sezmaydi, qolaversa, uning zararni oldindan ko‘rgan-ko‘rmaganini tekshirishga ham zarurat yo‘q. Shu sababli, aralash nazariyada oldindan ko‘ra bilishlik mezonini o‘zining hal qiluvchi ahamiyatini yo‘qotadi. Fransiya yoki anglo-amerika huquq tizimida unga berilgan ustuvor o‘rin O‘zbekiston huquq tizimida o‘z tasdig‘ini topmagan, shuning uchun amalda ham uni joriy etish maqsadga muvofiqligi jiddiy savol ostida qoladi. Ayniqsa, mavjud tushunchada asosiy rolning sababiy bog‘lanish egallab turgan holatda bu mezon ortiqcha bo‘lib qoladi.

15. Dissertatsiyada xorijiy mamlakatlarda amal qiladigan oldindan ko‘ra bilishlik doktrinasi va milliy doktrinada qo‘llaniladigan sababiy bog‘lanishning o‘zaro nisbati tahlil qilingan. Chet el doktrinasi qarzdor uchun zararlarni oldindan ko‘ra bilishning bir nechta mustaqil mezonlarini belgilaydi: xabardorlik (knowledge), shartnoma shartlari (terms of the contract) hamda savdo amaliyotidagi odatlar (trade usage). Anglo-amerika huquqida zararlarni haqidagi xabardorlik quyidagi ikki turga bo‘linadi: odatiy holatlardan kelib chiqadigan nazariy xabardorlik (imputed knowledge) va odatiy jarayonda bilib bo‘lmaydigan maxsus holatlar haqidagi asl xabardorlik (actual knowledge). Fikrimizcha, mazkur yondashuv milliy sivilistik doktrinada inobatga olinishi o‘rinli bo‘lar edi.

16. Bizningcha, javobgarlik asosi sifatida aybga nisbatan yondashuvni o'zgartirish hamda barcha turdagi majburiyatlarni bajarmaganlik uchun javobgarlikni belgilashda ayb mezonini inobatga olish lozim bo'ladi. Shu sababli, Fuqarolik kodeksidagi majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgarlik asosi sifatida aybni belgilash, fors-major holatlarini ham barcha uchun bir xilda amal qilishini nazarda tutish o'rinli bo'ladi.

17. Dissertatsiyada xorijiy mamlakatlarda "aybga asoslangan javobgarlik nazariyasi (Fault-based liability)" (Fransiya, Germaniya va Italiya), "aybsiz javobgarlik (Strict liability / Objective liability)" (Germaniya), "shartnoma va delikt javobgarligidagi farq (Contractual vs Tort Liability)" (Anglo-sakson huquq tizimi), "efficient Breach Doctrine (Iqtisodiy samaradorlikni buzish doktrinasini – AQSh)", "Culpa in contrahendo (shartnoma oldi javobgarligi)" (Germaniya va Yevropa xususiy huquqi), "Good Faith and Fair Dealing (Insof va odobli muomala majburiyati – AQSh)", "Corrective Justice (Tuzatuvchi adolat nazariyasi – Germaniya va Fransiya), "Preventive Liability (Oldini oluvchi javobgarlik)" (Yaponiya va Germaniya), "Law and Economics (Huquq va iqtisodiyot yondashuvi – AQSh) kabi nazariyalar, modellar va doktrinalar amal qilishi tahlil qilingan.

18. Umumiy huquqning muhim tamoyili – kreditorning manfaatlarini huquqiy himoya qilishning yagona shakli pul kompensatsiyasi hisoblanishidir. Bu esa shunga olib keladiki, har bir taraf istalgan vaqtda shartnomadan voz kechishi va boshqa tarafga yetkazilgan zarar uchun pul bilan tovon to'lashi mumkin. Shu jihatdan AQSh huquq amaliyotida "shartnomani samarali buzish" nazariyasi (efficient breach of contract) keng tarqalgan. Bu nazariya tarafdorlari shartnomadan chekinish va zararni qoplash nafaqat mumkin, balki iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan maqbul va rag'batlantirilishi kerak deb hisoblaydilar. Chunki har qanday tijorat shartnomasining asosiy maqsadi – foyda ko'rishdir. Agar shartnomani uchinchi shaxs bilan bajarish natijasida ko'proq foyda kelsa, avvalgi shartnomadan voz kechishga hech qanday to'siq bo'lmasligi lozim. Bu pacta sunt servanda (ya'ni, "shartnomalar bajarilishi lozim") zid keladi.

19. Angliya va AQShda shartnomaviy javobgarlikni cheklash yoki istisno qilishga doir shartlarni tan olish bilan birga, ularni noqonuniy deb topish uchun fundamental term va fundamental breach konsepsiyalaridan foydalaniladi, bu esa shartnomani buzgan shaxsning javobgarlikdan voz kechish imkoniyatini cheklaydi.

20. AQSh huquqida impracticability (bajarishning amaliy imkonsizligi) va frustration of purpose (maqsadning yo'qolishi) tushunchalari orqali qarzdor tomonni shartnomaviy majburiyatlardan ozod qilish imkoni kengaytirilgan, bu esa shartnoma erkinligi va iqtisodiy manfaatlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga qaratilgan.

21. "Shartnomani samarali buzish" (efficient breach of contract) nazariyasi AQShda iqtisodiy samaradorlikni birinchi o'ringa qo'yadi. Unga ko'ra, qarzdor shartnomani buzishi mumkin, agar bu harakat natijasida umumiy iqtisodiy manfaat yuqori bo'lsa va kreditorga kompensatsiya to'lansa.

22. Pul kompensatsiyasi anglo-sakson huquqida asosiy himoya vositasi bo'lib qolmoqda, majburiyatni asl shaklda bajarishga majburlash faqat istisno hollarda, masalan, noyob mol-mulk bilan bog'liq hollarda, qo'llaniladi.

23. Islom huquqshunosligida majburiyatlar, ularning manbalari va ularni bajarish bilan bog'liq faoliyatlar Allohning haqlari va insonlar haqlariga bog'liq

ravishda to‘rt guruhga ajratiladi: 1) faqat Allohning haqlari; 2) faqat insonlar haqlari; 3) Alloh haqlari ustuvor bo‘lgan majburiyatlar; 4) insonlar haqlari ustuvor bo‘lgan majburiyatlar.

24. Islom huquqida niyat tushunchasi “ayb” kategoriyasi bilan chambarchas bog‘liq. Agar biror shaxsning niyati islom aqidalari va diniy ko‘rsatmalariga zid bo‘lsa va bu niyat harakat orqali namoyon etilsa, bunday holatda uning qilmishidan kelib chiquvchi javobgarlik to‘g‘risida so‘z yuritish mumkin. Niyatni baholashda uning amalga oshishi yoki amalga oshmasligi, ya‘ni niyat qilingan ish – yaxshimi yoki yomonmi – to‘liq tugallanganmi, yo‘qmi, degan mezonlar asos qilinadi.

25. Bizning fikrimizcha, islom huquqi tizimida javobgarlik ikki xil shaklda namoyon bo‘ladi: 1) diniy javobgarlik, 2) huquqiy (yuridik) javobgarlik. Diniy nuqtayi nazardan javobgarlik – bu inson tomonidan Qur‘on va Sunnada belgilangan farzlar va taqiqlarni buzganligi uchun Alloh tomonidan unga beriladigan jazo, ya‘ni Oxiratda kutiladigan tanbeh va qiyinchiliklar. Huquqiy nuqtayi nazardan esa javobgarlik – bu inson tomonidan islom huquqining asosiy manbalarida (Qur‘on, Sunna va boshqalar) belgilangan me‘yorlarni buzganligi tufayli davlat tomonidan unga nisbatan qo‘llaniladigan jazo chorasi yoki unga tahdid etilishi mumkin bo‘lgan sanksiyadir. Bunda inson bu dunyoda amaliy ravishda ushbu jazoga tortilgan bo‘ladi.

26. Fuqarolik-huquqiy javobgarlik instituti rivojlanishining asosiy tendensiyalarini o‘rganish shuni ko‘rsatmoqdaki, fuqarolik huquqining ijtimoiylashuvi va insonparvarlashuvi jarayonlari ushbu institutda o‘z aksini topmoqda. Bir tomondan, shartnomaviy munosabat ishtirokchilari shartnoma shartlarini belgilashda erkinlikka ega bo‘lmoqda va dispozitivlik asoslari mustahkamlanmoqda; ikkinchi tomondan esa, sud nazorati kuchayib, shartnomaviy tartibga aralashuv, shartnoma mazmuniga baho berish, tomonlarning xulq-atvorini, ayniqsa, qarzdor va kreditorning zararni kamaytirishga qaratilgan harakatlarini tahlil qilish orqali amalga oshirilmoqda.

Yevropa huquqining bir qator huquqiy konstruksiyalarini retsepsiya qilish va ularni fuqarolik muomalasi sharoitiga moslashtirish orqali fuqarolik huquqining mutlaqo yangi konsepsiyasi, jumladan, fuqarolik-huquqiy javobgarlik instituti shakllanmoqda. Bu konsepsiya adolat, insoflilik va mutanosiblik prinsiplariga asoslanishi kerak.

## **II. Qonun hujjatlarini takomillashtirishga qaratilgan takliflar:**

O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksini takomillashtirishga oid takliflar:

1. **“Yuridik shaxs organlari va mansabdor shaxslarining fidutsiar (ishonchli) majburiyatlari”** nomli quyidagi **45<sup>1</sup>-modda** bilan to‘ldirish lozim:

***“45<sup>1</sup>-modda. Yuridik shaxslar organlari va mansabdor shaxslarining fidutsiar (ishonchli) javobgarligi***

*Qonunga yoki yuridik shaxsning ta’sis hujjatlariga muvofiq yuridik shaxs nomidan ish olib boradigan shaxs o‘zi vakili bo‘lgan yuridik shaxs manfaatlarini yo‘lida halol va oqilona ish olib borishi kerak.*

*Qonunga yoki yuridik shaxsning ta' sis hujjatlariga muvofiq yuridik shaxs nomidan ish olib boradigan shaxs yuridik shaxs muassislari (ishtirokchilari, a'zolari) talabi bilan, agar qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo' lmasa, yuridik shaxsga yetkazgan zararini qoplashi shart.*

*Ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan javobgarlik, shuningdek yuridik shaxsning kollegial organlari a'zolari zimmasiga ham yuklanadi, yuridik shaxsga zarar yetishiga olib kelgan qarorga qarshi ovoz bergan yoki halol harakat qilib bunday ovoz berishda ishtirok etmagan a'zolar bundan mustasno.*

*Yuridik shaxs harakatlarini belgilab berish, shuningdek ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismlarida ko'rsatilgan organlar va shaxslarga ko'rsatma berish imkoniyatiga amalda ega bo'lgan shaxs yuridik shaxs manfaatlarini ko'zlab oqilona va halol harakat qilishga majbur va uning aybi bilan yuridik shaxsga yetkazilgan zarar uchun javobgardir.*

*Ushbu moddada ko'rsatilgan shaxslar yuridik shaxsga birgalikda zarar yetkazgan hollarda zararni sheriklikda qoplaydilar.*

*Ushbu moddada ko'rsatilgan shaxslarning javobgarligini bekor qiladigan yoki cheklaydigan kelishuv o'z-o'zidan haqiqiy emas”.*

2. 236-moddaning ikkinchi qismi sifatida quyidagi tahrirdagi norma kiritilishi lozim:

*“Ayrim shartnomalarda taraflarning o'zaro majburiyatlarini bajarish uchun qo'shimcha ravishda alohida ifodalangan ixtiyoriy rozilik talab etilmasdan, muayyan shartlar ro'y berganda bevosita bajarilishini nazarda tutish mumkin. Bunday holatda, shartnomada belgilangan axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali majburiyatlar bajarilishi ta'minlanadi”.*

3. **“Bir xil turdagi majburiyatlar bo'yicha talablarni qondirish”** nomli **248<sup>1</sup>-moddani** kiritish va uni quyidagi mazmunda ifodalash zarur:

**“248<sup>1</sup>-modda. Bir xil turdagi majburiyatlar bo'yicha talablarni qondirish**

*Agar qarzdor tomonidan bajarilgan summa belgilangan tartibda qarzdorning kreditor oldidagi barcha bir xil turdagi majburiyatlarini qoplash uchun yetarli bo' lmasa, qonun hujjatlarida boshqacha qoidalar nazarda tutilmagan hollarda, bajarilgan summa qarzdor tomonidan bajarish vaqtida ko'rsatilgan majburiyatni qoplashga yo'naltiriladi.*

*Qonun hujjatlarida yoki taraflarning kelishuvida boshqacha qoidalar nazarda tutilmagan bo'lsa, qarzdor qaysi majburiyatni qoplash uchun bajarish amalga oshirilganini ko'rsatmagan taqdirda, avval bajarish muddati kelgan yoki avvalroq kelishi lozim bo'lgan majburiyat qoplanadi. Agar majburiyatlarni bajarish muddatlari bir vaqtning o'zida kelgan yoki kelishi kerak bo'lsa, yoxud majburiyatda bajarish muddati nazarda tutilmagan va uni aniqlash imkonini beradigan shartlar mavjud bo' lmasa, avval yuzaga kelgan majburiyat qoplanadi. Agar majburiyatlar bir vaqtning o'zida yuzaga kelgan bo'lsa, bajarilgan summa barcha bir xil turdagi talablarni qoplash uchun proporsional tarzda hisobga olinadi”.*

4. **Majburiyat bo'yicha kreditor huquqlarini himoya qilish** bo'yicha alohida norma kiritib, uni **250<sup>1</sup>-modda** sifatida quyidagicha ifodalash maqsadga muvofiq:

**“250<sup>1</sup>-modda. Majburiyat bo‘yicha kreditorning huquqlarini himoya qilish**

Qarzdor o‘z majburiyatini bajarmagan taqdirda, kreditor suddan ushbu majburiyatni asl holda bajarishni agar bu Kodeksda, boshqa qonunlarda yoki shartnomada nazarda tutilmagan bo‘lsa yoki majburiyatning mohiyatidan kelib chiqmasa, talab qilish huquqiga ega. Kreditorning talabiga ko‘ra sud, agar yuqorida ko‘rsatilgan sud hujjati bajarilmasa, kreditor foydasiga adolat, mutanosiblik va noqonuniy yoki nohalol xatti-harakatlardan foyda olishga yo‘l qo‘ymaslik tamoyillari asosida aniq va qat’iy belgilanadigan miqdorda pul summasi (ushbu Kodeks 260-moddasining birinchi qismi) undirishni belgilashi mumkin.

Ushbu moddaning birinchi qismiga muvofiq kreditor tomonidan o‘z huquqlarini himoya qilish qarzdorni majburiyatni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun javobgarlikdan (ushbu Kodeks 24-bobi) ozod qilmaydi”.

5. 324-moddani **“Majburiyatning buzilishi”** deb nomlash va amaldagi 324-moddani 324<sup>1</sup>-modda sifatida belgilash maqsadga muvofiq. **“Majburiyatning buzilishi”** nomli yangi 324-moddani quyidagicha ifodalash zarur:

**“324-modda. Majburiyatning buzilishi**

Majburiyat buzilishi bo‘lib uning bajarilmasligi yoki majburiyat mazmunida belgilangan shartlar buzilib bajarilishi (lozim bo‘lmagan bajarilishi) hisoblanadi”.

6. 324-moddani 324<sup>1</sup>-modda sifatida belgilab, quyidagi mazmundagi **birinchi** va **ikkinchi** qismlar bilan to‘ldirish kerak:

“Qarzdor majburiyatni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi tufayli kreditorga yetkazilgan zararni to‘lashi shart. Agar qonunda boshqacha hol belgilanmagan bo‘lsa, kreditor o‘z huquqlari buzilgan taqdirda qonun yoki shartnoma bilan nazarda tutilgan boshqa himoya vositalaridan foydalanganligi uni qarzdordan majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganligi natijasida yetkazilgan zararni qoplashni talab qilish huquqidan mahrum etmaydi. Zararlar mazkur Kodeksning 14-moddasida belgilangan qoidalarga muvofiq aniqlanadi.

Zararlarni to‘liq qoplash shundan iboratki, zararlar qoplanganidan so‘ng kreditor majburiyat to‘liq va lozim darajada bajarilgan taqdirda qanday holatda bo‘lishi nazarda tutilgan bo‘lsa, aynan shu holatga qaytarilishi lozim”.

Ushbu moddaning amaldagi tahriridagi **birinchi**, **ikkinchi** va **uchinchi** qismlarni mos ravishda **uchinchi**, **to‘rtinchi** va **beshinchi** qismlar deb hisoblash lozim.

7. Majburiyat bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmaganda qoplanishi lozim bo‘lgan boy berilgan foyda miqdori majburiyat buzilishi oqibatlariga mutanosib bo‘lishi hamda halollik va oqilonalik mezonlaridan kelib chiqib aniqlanishi lozim. Shu munosabat bilan, amaldagi 324-moddani 324<sup>1</sup>-modda sifatida belgilab, **oltinchi** va **yettinchi** qismlar sifatida quyidagi qoidalarni kiritish o‘rinli bo‘ladi:

“Qoplanishi lozim bo‘lgan zarar miqdori asosli darajada ishonchli hisob-kitob qilingan holda belgilanishi kerak. Sud kreditorning qarzdor tomonidan majburiyatni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi natijasida

yetkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi talabini faqat zarar miqdori asosli darajada ishonchli aniqlanmaganligi sababli rad etishi mumkin emas. Bunday holatda zararining qoplanadigan miqdori sud tomonidan ishning barcha holatlarini hisobga olgan holda, adolat va majburiyatni buzish darajasiga mutanosiblik prinsiplariga asoslanib belgilanadi.

Agar qarzdor muayyan harakatlarni sodir etmaslikka qaratilgan majburiyatni (negativ majburiyat) buzgan bo'lsa, kreditor zarar qoplanishiga qaramasdan ushbu harakatlarni to'xtatishni talab qilish huquqiga ega, agar bu majburiyatning mohiyatiga zid bo'lmasa. Bunday talab kreditor tomonidan bunday majburiyatni buzish xavfi haqiqiy deb hisoblangan holatlarda ham qo'yilishi mumkin".

8. **“Majburiyatni buzishning huquqiy oqibatlari”** nomli 324<sup>2</sup>-moddani kiritish va uni quyidagi tahrirda ifodalash zarur:

**“324<sup>2</sup>-modda. Majburiyatni buzishning huquqiy oqibatlari**

Majburiyat buzilgan taqdirda, shartnoma yoki qonunda nazarda tutilgan huquqiy oqibatlar yuzaga keladi, jumladan:

agar shartnoma yoki qonunda nazarda tutilgan bo'lsa, majburiyatdan bir tomonlama voz kechish natijasida majburiyatni tugatish yoki shartnomani bekor qilish;

majburiyat shartlarini o'zgartirish;

neustoyka (penya, jarima) to'lash;

yetkazilgan zarar va ma'naviy zararni qoplash.

Agar qarzdor man etish yoki tiyilish xususiyatiga ega bo'lgan majburiyatni buzgan bo'lsa, kreditor neustoyka va (yoki) zarar hamda ma'naviy zarar qoplanishidan qat'iy nazar, agar bu majburiyat mazmuniga zid bo'lmasa, qarzdordan o'zini tiyishga majbur bo'lgan harakatlarni to'xtatishni talab qilish huquqiga ega. Bunday talab kreditor tomonidan bunday majburiyatning buzilishi real xavfi yuzaga kelgan holatda ham qo'yilishi mumkin".

9. **“Shartnoma bekor qilinganda yetkazilgan zararlarni qoplash”** nomli 324<sup>3</sup>-moddani kiritish va uni quyidagi tahrirda ifodalash kerak:

**“324<sup>3</sup>-modda. Shartnoma bekor qilinganda yetkazilgan zararlarni qoplash**

Agar qarzdor tomonidan shartnoma bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmaganligi tufayli shartnoma muddatidan oldin bekor qilingan bo'lsa va kreditor uning o'rniga o'xshash shartnoma tuzgan bo'lsa, kreditor qarzdordan bekor qilingan shartnomada belgilangan baho bilan uning o'rniga tuzilgan shartnoma bo'yicha qiyoslash mumkin bo'lgan tovarlar, ishlar yoki xizmatlar narxi o'rtasidagi farqni zarar sifatida qoplashni talab qilish huquqiga ega.

Agar kreditor bekor qilingan shartnoma o'rniga (ushbu moddaning birinchi qismiga muvofiq) o'xshash shartnoma tuzmagan bo'lsa, biroq bekor qilingan shartnomada nazarda tutilgan majburiyatni bajarish bo'yicha qiyoslash mumkin bo'lgan tovarlar, ishlar yoki xizmatlar uchun amaldagi baho mavjud bo'lsa, kreditor qarzdordan bekor qilingan shartnomada belgilangan baho bilan shu amaldagi baho o'rtasidagi farqni zarar sifatida qoplashni talab qilish huquqiga ega.

Amaldagi baho deb shartnoma bekor qilingan paytda qiyoslash mumkin bo'lgan tovarlar, ishlar yoki xizmatlar uchun shartnoma bajarilishi lozim bo'lgan

joyda qo'llaniladigan baho tushuniladi, agar bunday baho ushbu joyda mavjud bo'lmasa, u holda boshqa joyda qo'llaniladigan va transport hamda boshqa qo'shimcha xarajatlarni hisobga olgan holda asosli ravishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan narx nazarda tutiladi.

Ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismlarida nazarda tutilgan talablarni qondirish qarzdor tomonidan majburiyat bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan holatda boshqa tarafga yetkazilgan boshqa zararlarni qoplash majburiyatidan ozod etmaydi”.

10. 327-modda uchinchi qismining ikkinchi va uchinchi gaplari sifatida quyidagi normani kiritish lozim bo'ladi:

“Yengib bo'lmaydigan kuch holati (fors-major) bu – qarzdor tomonidan shartnoma tuzish paytida inobatga olishning, tegishli choralar ko'rishi natijasida bartaraf etishning yoki oqibatlarini yengishning imkoni bo'lmagan, uning nazoratidan tashqari bo'lgan qarzdor majburiyatini bajarishga to'sqinlik qiladigan hodisa yoki harakat hisoblanadi. Bunda qarzdorning oqilona harakat qilishi talab etiladi”.

11. 327-moddani quyidagi tahrirdagi to'rtinchi va beshinchi qismlar bilan to'ldirish taklif etiladi:

“Agar shartnomada pul majburiyatini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun neustoyka belgilangan bo'lsa, ushbu moddada nazarda tutilgan foizlar to'lanmaydi.

Ushbu moddada nazarda tutilgan foizlar o'z vaqtida to'lanmagan foizlarga (murakkab foizlar) nisbatan qo'llanilmaydi”.

12. **“Qarzdorning o'z xodimlari uchun javobgarligi”** nomli **327<sup>1</sup>-moddani** kiritish va uni quyidagi tahrirda belgilash lozim bo'ladi:

**“327<sup>1</sup>-modda. Qarzdorning o'z xodimlari uchun javobgarligi**

Qarzdor xodimlarining o'z majburiyatlarini bajarish bo'yicha harakatlari qarzdorning harakatlari hisoblanadi. Agar bunday harakatlar qarzdorning majburiyatlarni bajarmasligiga yoki lozim darajada bajarilmasligiga olib kelsa, qarzdor ushbu harakatlar uchun javobgar bo'ladi”.

13. **“Majburiyatda tavakkalchilik xavfi”** nomli **327<sup>2</sup>-modda** kiritilishi quyidagi tahrirda ifodalanishi zarur:

**“327<sup>2</sup>-modda. Majburiyatda tavakkalchiligi xavfi**

Agar majburiyatga muvofiq tovar yetkazib berish, ish bajarish yoki xizmat ko'rsatish nazarda tutilgan bo'lsa, ulardan foydalanishning imkonsizligi yoki maqsadga muvofiq emasligi bilan bog'liq tavakkalchilik kreditor zimmasiga yuklanadi. Majburiyatni tegishli tarzda bajargan shaxs, agar shartnomada tavakkalchilikni boshqacha taqsimlash nazarda tutilmagan bo'lsa, bajarilgan majburiyat hajmiga mutanosib ravishda haq olish huquqiga ega”.

14. 334-moddani quyidagi tahrirda belgilash lozim bo'ladi:

**“334-modda. Uchinchi shaxslarning harakatlari uchun qarzdorning javobgarligi**

Agar majburiyatning buzilishiga qarzdorning oldida o'ziga nisbatan majburiyat yuklangan uchinchi shaxslarning harakatlari yoki harakatsizligi sabab bo'lsa, qarzdor bunday holatlarda ham kreditor oldida javobgar bo'ladi.

Qarzdor, o'zining kreditor oldidagi majburiyatini bajarishni uchinchi shaxsga yuklagan holda, ushbu uchinchi shaxsning harakatlari yoki harakatsizligi uchun ham agar amaldagi qonunchilikda bevosita bajaruvchi javobgar bo'ladi deb belgilanmagan bo'lsa, javobgar hisoblanadi.

